

LOGISTIKANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Azizov Shavkat Abduraxmanovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada logistika sohasida qabul qilingan qarorlar, ularning mazmun-mohiyati, logistik tizimlar va ularning iqtisodiyotda tutgan o'ri hamda rivojlanish bosqichlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Logistika, transport vositasi, logistik integratsiya, logistik integratsiyaning rivojlanish bosqichlari.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha beshta ustuvor yo'nalishga ega Harakatlar strategiyasi dasturining mantiqiy davomi hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-60-son farmonining qabul qilinishi davlatimizning yangi qiyofasini, "Yangi O'zbekiston" bo'yini butun dunyoga ko'rsatmoqda[1].

Ma'lumki turli sifatga ega bo'lgan oqim jarayonlarini boshqarishga oid faoliyat turlari logistikaning mazmunini tashkil etadi. "Logistika" asosiy mazmun va mohiyati jihatidan xomashyo va materiallarni ishlab chiqaruvchilarga, istemolchilarga yetkazish jarayonlarini rejalashtirish, nazorat qilish, transport operatsiyalarini tashkil etish va boshqarish, yuklarni omborlarda saqlashni tashkil etish, mahsulotlarni is'temolchiga uning talablariga ko'ra yetkazib berish va yo'lovchilarni manzillariga yetkazish hamda ushbu faoliyat turlarining moliyaviy va axborot taminotini amalga oshirish bilan bog'liq muammolar yechimini topishni ko'zda tutadi.

Bundan tashqari, "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-son Farmonida "...logistika va pochta aloqasi xizmatlari orqali telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish" vazifasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berilgan[2].

Bu vazifalarni amalga oshirish ularni o'zaro bog'liqlikda tahlil va tadqiqot etish, tizimli va logistik yondashuvni talab qiladi, chunki umumiy jarayonlarning har birini, ya'ni, juda murakkab ishlab chiqarish va realizatsiya bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni optimallashtirish lozim bo'ladi.

MASALANING QO'YILISHI VA TADQIQOT USULI

Bilamizki, har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida uning qon tomiri bo'lgan logistika tizimi juda muhim ahamiyatga ega. Samarador logistika tizimi ichki bozorda tayyor mahsulot va xom-ashyo harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun qulay sharoit va arzon narxlarda yetkazib berilishini ta'minlaydi, bozordagi raqobatni rag'batlantiradi. Tashqi bozorda esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi. Shuning uchun, rivojlanib borayotgan mamlakatimiz uchun samarador logistika tizimini tashkil qilish, bu jarayonda avtomobil transportidan samarali foydalanish dolzarb masala hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda logistika rivojlanishining uchta bosqichi ajratiladi.

Birinchi bosqich – XX asrning 60 yillari, bu davr muomalasohasida moddiy oqimlarni boshqarishda logistik yondashuvdan foydalanish bilan tavsiflanadi. Bu davrda ikki asosiy holatni tushuntirish mumkin[3]:

1. Mavjud materiallar oqimi ishlab chiqarishda, saqlashda va tashishda ularga bo'lgan yagona boshqaruv tizimi bilan qamrab olinadi.

2. Materiallarni jismoniy taqsimlashning alohida funksiyasi integratsiyasi sezilarli iqtisodiy samara berishi mumkin.


Jismonan taqsimlashni optimallashtirish masalalari avvallari ham hal etib kelingan. Misol uchun, keltirib beriladigan mahsulotlar qismlarining chastotasi va hajmi, omborlarni joylashtirish va faoliyatini optimallashtirish, transport marshrutlari va grafiklarini optimallashtirish va boshqalar. Biroq an'anaviy tarzda bu vazifalar alohida-alohida olib borilgan va hal etilgan, bu esa o'z-o'zidan tizimli ravishda o'z samarasini bermagan va shu sababli firmalar ko'p hollarda bu masalalarga e'tiborni qaratmaganlar.

Logistik yondashuvning o'ziga xos xususiyati, moddiy oqimlarni boshqarish bo'yicha vazifalarni birgalikda hal qilishdan iborat, misol uchun ombor xo'jaligi va unga bog'liq transport faoliyatini tashkil etish vazifalarini birgalikda yechish. Logistika rivojlanishining birinchi bosqichida transport va ombor, avval yukni ortish va yukni tushirish bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha uzviy bog'langan bo'lsa, endilikda ular yagona grafik va yagona kelishilgan texnologiya bo'yicha ishlay boshlaydi. Yuk tushiriladigan idish (tara) qo'llaniladigan transportni hisobga olgan holda tanlanadi, o'z o'rnida tashiladigan yukning xususiyatiga ko'ra transport turi tanlanadi. Hamkorlikda yana transport ombor jarayonini tashkil etish bo'yicha zarur

masalalar yechiladi. Moddiy oqim harakati ishtirokchilarning oxiri iste'molchigacha bo'lgan jarayoni logistik integratsiyasi darajasining grafik ifodasi 1-rasmda keltirilgan[4].

Shuni ta'kidlash joizki, moddiy oqimlarni boshqarish bo'yicha alohida vazifalarni birgalikda yechish alohida vazifalar yechimidan anchagina murakkab hisoblanadi. Bu yerda boshqacha usullar, hamda mutaxassislarning boshqacha tayyorgarligi talab etiladi.

Logistik integratsiya




1-rasm. Logistika rivojlanishining birinchi bosqichi – transport- ombor jarayoni integratsiyasi.

Logistika rivojlanishining ikkinchi bosqichi XX asrning 80 – yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda logistikaning integratsion asosi kengaydi va u ishlab chiqarish jarayonini qamrab ola boshladi.

Logistikaning rivojlanish 80 – yillar nuqtai nazardan quyidagicha tavsiflanadi:

- taqsimlash tannarxining tez sur'atlarda o'sishi;
- logistik jarayonlarni boshqarishni amalga oshiradigan menejerlar kasbiy mahoratlarining o'sishi;
- logistika sohasida uzoq muddatli rejalashtirish;
- logistik jarayonlarni nazorat qilish va axborot to'plash uchun kompyuterlardan keng foydalanish;
- taqsimlashni markazlashtirish;
- moddiy oqim zanjirlarida zahiralarning keskin qisqarishi;
- taqsimotning haqiqiy harajatlarini aniqlash;

- moddiy oqimni oxirgi iste'molchigacha harakatlanishida narxini kamaytirishi bo'yicha chora – tadbirlarni aniqlash va amalga oshirish.




2-rasm. Logistika rivojlanishining 2-bosqichi: ishlab chiqarish sexi, transport va ombor umumiy uyg'unlashgan mexanizm sifatida ishlay boshlaydi.

80 – yillarda erishilgan logistik integratsiyaning grafik tasviri (2-rasm) keltirilgan. Bu yerda ombor va transportning o'zaro uyg'unligiga ishlab chiqarishni rejalashtirish qo'shila boshlandi.

Bu zahiralarni qisqartirish, buyurtmalarni o'z vaqtida bajarish hisobiga xaridorlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, uskunadan foydalanishini yaxshilash imkonini beradi.

Uchinchi bosqich hozirgi vaqtga to'g'ri keladi va quyidagicha tavsiflanadi:

- moddiy va axborot oqimlarini tez harakatlanishini ta'minlaydigan zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari mahsulot harakatlanishining, ya'ni xom ashyo birlamchi manбайдan oxirgi iste'molchigacha bo'lgan barcha fazalarida monitoringni amalga oshirish imkonini beradi;
- logistika sohasida xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha tarmoqlar rivojlanadi;
- integratsiya zarurat deb hisoblagan logistika konsepsiyasi ta'minlash, ishlab chiqarish va taqsimlash zanjiri ishtirokchilari tomonidan tan olinib boshlandi;
- logistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi sub'yektlar yig'indisi endilikda bir butunlik tavsifiga ega bo'la boshlaydi (3-rasm).



3-rasm. Logistika rivojlanishining uchinchi bosqichi: logistik jarayon qatnashchilari majmuasi bir butun tavsifga ega bo‘ladi.

XULOSA

Tadqiqot logistika-sotib olish interfeysida funksional muvofiqlashtirish, ziddiyatlar va ishlashning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risida qimmatli tushunchalarni beradi. Ijtimoiy almashinuv nuqtai nazaridan kelib chiqib, natijalar ta‘minot samaradorligiga erishish uchun funksional jihatlarining dolzarbligini namoyish etadi. Shu sababli, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, aloqa va hamkorlik jarayonlarining aniq o‘rnatilishi, ushbu munosabatlardagi o‘zaro ta‘sirler ijtimoiy jihatdan nomaqbul bo‘lib qolsa, ta‘minotning yuqori ko‘rsatkichlariga olib kelishi shart emas. Aksincha, agar ijtimoiy o‘zaro ta‘sir funksional sohalar o‘rtasidagi ijobiy yoki ijtimoiy manfaatli munosabatlarga asoslangan bo‘lsa, u holda sotib olish-logistika interfeysidagi o‘zaro ta‘sir ta‘minot zanjiri ko‘rsatkichlarining oshishiga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-60-son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-5349-son farmoni.
3. Неруш Ю. М. Логистика: учебник для академического бакалавриата / Ю. М. Неруш, А. Ю. Неруш. - 5-е изд., перераб. и доп. - М. : Издательство Юрайт, 2019. - 559 с.
4. Гаджинский А.М. Логистика: Учебник - 20-е изд. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2012.- 484 с.